

– Bu yil ham sevimli gazetamizga ko'plab
tengdoshlarim obuna bo'lishlariga ishonaman,
– deydi Urganch shahridagi 5-maktab
o'quvchisi Risolat ISKANDAROVA



Tong YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

2007-yil
30-iyul –
5-avgust
N:31
(66624)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

Barcha abituriyent aka -
opalarimizga sinovlarda omad tilaymiz!



Sunnatilla QO'ZIYEV
surat lavhasi

Shoshilinch maktub!

TA'TILDA HAM TALASH EKAN

O'quv yili davomida maktabimiz kutubxonasi doimo gavjum bo'lardi. Ayniqsa, «Tong yulduzi»ning yangi sonini o'qish amri mahol edi.

Gazeta keladigan kuni maktabga barvaqtroq borib, kutubxonaga oshiqdim. Baribir kech qolibman, uni gazetxon o'quvchilar olib o'qishayotgan ekan.

Tunov kuni, ta'tilda o'quvchilar kamroq bo'lsa kerak, bir miriqib gazeta o'qib kelay, degan ilinjda borsam, o'quvchilar avvalgidan ham ko'payibdi. Gazetaning o'tgan oydagi sonlaridan bir-ikkitasini o'qiy oldim, xolos. To'g'risi, juda alam qildi. Kutubxonadan chiqib to'g'ri aloqa bo'limiga bordim va ikkinchi yarim yillik uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldim. Endi uni qidirib kutubxonaga borishga, navbat kutib, soatlab o'tirishga hojat ham qolmadi. Har haftada o'zi meni «yo'qlab» kelib turibdi.

Furqat KARIMOV,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani, Boyovut qishlog'i

Yangi
ertak-qissa:
«Usta va
charxpalak»
3-4-betlar

6 YASHAR BOLA
BO'LGIM KELADI
7-bet

MEN O'ZIM BO'LAYIN DARMON

O'n yoshli bolakayni qo'ldan tutganicha, xonamizga kirib kelgan qizning holati e'tiborimizni tortdi. Bir qarashda: «Kap-katta bolani qo'ldan yetaklab olibdi», degan taassurot ham qoldiradi kishida. Aslida esa aksincha, bolakay ko'zi o'z o'zini yetaklab kelayotgan ekan. Ularga o'tirish uchun joy ko'rsatdik-da, qulog'imiz sizda, degandek qizga yuzlandik. Opa, gapiring, deya qo'ldan turtib qo'ydi jiyani.

–Men she'rlar yozaman-da,– dedi o'zini Dildora Oxbo'tayeva deb tanishtirgan 16 yoshlar chamasidagi haligi qiz vodiycha shevada. –Ayrimlarini gazetangizga ham olib kelgandim...

–Juda yaxshi qilibsiz. Qani, eshitaylik-chi.

Qizcha biroz iymانبroq turdi-da, so'ngra, xonaning shifiga termulganicha she'r o'qiy boshladi:

Nechun tashlab ketdingiz meni, dadajon,

Qalbimni o'rtaydi sog'inchli armon...

Dildora she'rining davomini o'qiy olmadi. Ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. Bildikki, yoshgina qalbida qandaydir dardi, armoni bor. Qo'liga qalam tutqazgan ham ana shu dard, alam bo'lsa, ajabmas. Alamsizlar qalamsiz, deyishadi-ku, axir...

She'rning yakunini esa o'zimiz o'qib oldik:

Mayli, qayda bo'lmang, bo'ling sog'-omon,

Qalbingizda qolmasin zarracha armon.

Dard bersa, men o'zim bo'layin darmon,

Aziz dadajonim, aziz dadajon!

Qiz bola uchun ota bebaho, tengsiz dunyo. Bu dunyo qalbingni nurga to'ldirsin, Dildora singlim!

ZAMONBEKA

Yangi maskan

«UMID NIHOLLARI»GA TAYYORGARLIK

Sirdaryo shahrida qad rostlagan TIP-V bolalar sport majmuasi 15-maktabda joylashgan. Ayniqsa, yozgi ta'tilning eng maroqli kunlarini shu maskanda o'tkazayotgan har bir bola o'zini sportchi deb his etmoqda.

Tez-tez o'tkazilayotgan musobaqalarda bolalar o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazmoqdalar. Respublika Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan sport majmuamizga turli-tuman sport jihozlarini taqdim etilishi sportsevar bolalarimizni yanada quvontirdi.

Biz murabbiylarning maqsadi esa 2009-yil shahrimizda o'tadigan maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» sport musobaqasida g'oliblar qatoridan o'rin olishga astoydil intilishdir.

Rishida ABLAYEVA,

Sirdaryo shahridagi 15-maktabning
jismoniy tarbiya o'qituvchisi



BIRGINA ARMONI BOR...

2007-yil – Ijtimoiy himoya yili

Dunyoda saxiy, qalbi pok insonlar ko'pligiga yaqinda yana bir bor amin bo'ldim. Mahallamizda bolalar tug'ma falaji kasalligi bilan og'rikan Tursunmurod ismli bir bola yashaydi. O'n besh yoshli tengdoshimizning nogironlik aravachasi ancha eskirib qolgan ekan. Yaqinda tumanimizdagi 6-oilaviy shifoxona bosh shifokori Feruza opa Yo'ldosheva unga o'z hisoblaridan yangi aravacha olib beribdilar. Bu xushxabarni eshitib, ularnikiga otlandim. Odatda imkoniyati cheklangan insonlar, ayniqsa, bolajonlarning ko'zlari allanechuk mungli bo'lardi. Tursunmurodning yuzlaridan esa tushkunlik emas, aksincha, ko'tarinkilik kayfiyati sezilib turardi. Boisini bilsak, Izzat, jiyani Sardor kabi yaqin do'stlari juda ko'p ekan. Ular bilan shaxmat, shashka o'ynashar, birgalikda dars tayyorlasharkan. Tumandagi 123-maktabning mehridaryo o'qituvchilari uyiga kelib, saboq berisharkan. U fizika va matematika fanlariga ko'proq qiziqarkan. Mehribon hamshirasi Zilola opa uning holidan tez-tez xabardor bo'lib tursa, shifoxonaning ko'plab shifokorlari bayramlarda yo'qlab, sovg'a-salomlar keltirisharkan. Oliy toifali shifokor Nargiza opa Sobirovaning aytishicha,



Tursunmurod yilda ikki marta to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazib turilarkan. Zarur dori-darmonlar esa davlat tomonidan bepul ajratilarkan.

Tursunmurod texnikaga juda qiziqarkan. Radio, televizor deysizmi, dazmol-u jiyanlarining buzilgan o'yinchoqlari deysizmi, barini bir zumda tuzatib beraverarkan. Kelgusida texnika ustasi bo'lishni orzularkan. Tabiatan quvnoq, hayotga intiluvchan tengdoshimizning birgina armoni bor: u ham bo'lsa, tengdoshlari bilan futbol o'ynash. Do'stlari ham buni bilishadi chog'i, Tursunmurodning hecham yolg'izlatib qo'yishmaydi.

Shahnoza G'ANIYEVA,

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
116-maktab o'quvchisi

Maroqli dam



Xizmat safari yuzasidan Toshkent viloyati, Bo'ka tumaniga borganimda, bir oromgohning ta'rifini eshitib qoldim. «Yangi avlod» nomli bu oromgoh Xo'jaqo'rg'on jamoasi xo'jaligidagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabi qoshida faoliyat ko'rsatar ekan. Binoga yaqinlashganimda, navbatchilik qilayotgan bir bolakay yugurib keldi-da:

– Siz «Quvnoqlar va zukkolar» musobaqasiga kelgan mehmon bo'lsangiz kerak-a? Yuring, marhamat! – dedi.

Men ta'mirdan chiqqan, shinamgina maktabga kirar ekanman, devoriy ko'rgazmalarga ko'zim tushib, quvondim. Yana saf bo'lib ketayotgan bir-biridan odobli bolalar e'tiborimni tortdi. Keng sport zali esa bayramona bezatilgan edi. U yerda

BO'KALIK G'OLIBLAR

yangicha zamonaviy sport anjomlari ham bisyor edi.

Musobaqani maktab direktori Saidbahrom G'ulomov ochdi. Andijon shahridan kelgan «Navro'z» jamoasi bilan shu maktabning «Yoshlik» jamoasi o'zaro qizg'in bahs olib borishdi. Bir-biridan qiziqarli va chaqqonlikni talab etadigan shartlarni jismoniy tarbiya o'qituvchisi Laziz G'ulomov o'yab topibdi. «Yoshlik» jamoasi sardori Bobir Inomov esa juda murakkab bo'lgan shartni bajarib, hammani lol qoldirdi. Maktab «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati yetakchisi Zulfizar Xo'jayeva esa uzoqqa sakrashni boplar ekan. Saydiibrohim Akmalxo'jayev bilan Sohibkamol Inomov hal qiluvchi pallada o'zlarini ko'rsatib, halqaga juda ko'p to'p tushirishdi. Natija esa bo'kaliklar hisobiga 5 ball bilan hal bo'ldi. Garchi andijonliklar biroz xafa bo'lishgan bo'lsa-da, lekin ko'ngillarini cho'ktirishmadi. Chunki musobaqa bahona ham sayohat qilishdi, ham ko'plab yangi do'stlar orttirishdi.

Botir RAMAZONOV

O'RNAK BO'LISH OSONMAS

Ko'pincha biz yoshlarga kattalarni o'rnak qilib ko'rsatishadi.

Bu tabiiy albatta. Chunki ular ko'pni ko'rishgan. Men o'zim ham xoh uyda bo'lsin, xoh ko'chko'yda, hamisha kattalarga o'xshashga intilaman. Ammo bugun...

Keling, yaxshisi bir boshdan gapirib bera qolay. Paxtakor bekatidan avtobusga chiqdim. Havo dim bo'lgani uchun oynaga beixtiyor bekatlarda tushayotgan odamlarni barvasta amaki ham, uning ketidan tushgan katta yoshli ayollar ham qo'llaridagi chiptalarini oyoqlari ostiga tashlab yuborishdi. «Qo'lingdagi qog'ozni yerga tashla», deya buyurdi muzqaymoq yeb ketayotgan bolasiga ko'k ko'ylakli ayol. Vaholanki, har bir bekatning shundoqqina yonida chiqindi tashlaydigan maxsus qutilar o'rnatilgan edi. Bekatda bolalari bilan turib pista chaqayotgan, po'choqlarini esa oyoqlari ostiga tashlayotgan ota-onalarga nima deysiz? Axir bekatlarimiz, tevarak-atrofimiz ozoda bo'lsa, qanday yaxshi.

Bizga shunday o'rnak bo'layapsizmi, aziz kattalar?

Nigora NODIROVA

Ijod ahli uchun vaqtning ham, sharoitning ham ahamiyati yo'q, deganlaricha bor ekan. Barcha tengdoshlari miriqib dam olayotgan ayni ta'til pallasida ham she'rlar qoralab, bizga yo'llayotgan yosh ijodkorlarimizning ko'pligi fikrimizga dalil bo'la oladi.

She'r yozar mitti yurak. Bizga qolsa, ularning barini gazeta sahifalarida e'lon qilgan bo'lardik. Afsuski, she'riyatning o'ziga yarasha qonun-qoidalari, talablari ham borki, ularga amal qilmay ilojimiz yo'q. Shunday nuqtayi nazar bilan she'rlarga ko'z yugurtiramiz.

Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 218-maktabning 5-sinf o'quvchisi Gulzira Mavlonovanning quyidagi misralari e'tiborimizni tortadi:

*Mayli, tuproq bo'lay, bitta tosh bo'lay,
Sir aysang, bir umr chin sirdosh bo'lay,
Senga yoqmasam gar uzr so'rayman,
Mayli, dard tushunmas bir bebosh bo'lay,
Ne bo'lsam, bag'ringda bo'layin, Vatan!*

Ushbu she'rdagi betakror qiyosiy topilmalar, o'rinni tashbehlar o'quvchini hayratga soladi. Muallifning ismi-sharifini bilmay turib she'rni o'qigan odam, uni 5-sinf o'quvchisi yozganiga hecham ishongisi kelmaydi. (Gulzira qizimiz she'rni o'zi yozgan, deb umid qilamiz.)

Yana bir she'rni qo'lga olamiz. Buxoro viloyati, Buxoro tumanidan Mahbuba Muhammadova «Otam va onam» she'rida shunday yozadi:

*Erta uyg'onganimda,
Ota-onam yonimda.
Mehr berarlar menga,
Bir umrga yodimda...*

E'tibor bering-a, Mahbuba «yonimda» so'ziga qofiyadosh so'z topish maqsadida «yodimda» so'zini ishlatgan. Bu esa hozirgi va o'tgan zamon voqeliklarining qorishib ketishiga olib kelgan. Ota-onalarimiz mehrini daryolarga, dunyolarga, samolarga, qo'yingchi, barcha kengliklarga, beg'uborliklarga qiyoslaymiz. Mahbuba ham hali hech kim ishlatmagan o'xshatishlar, qiyoslashlar topganida, maqsadga muvofiq bo'lardi.

SHE'R YOZAR



MITTI YURAK...

Har kun ishda mening oyim,

Erkalarlar deb: chiroyim, misralari bilan davom etgan she'rda vazn buzilishi, zo'rma-zo'raki qofiya ham ko'zga tashlanadi.

Yoki Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani, Log'on qishlog'idagi 49-umumta'lim maktabi o'quvchisi Feruzaxon Shokirovanning «Mahsining o'g'risi kim?» nomli hazil she'rini olaylik:

*Bir kampirning mahsisi,
Yo'qolib qoldi bir tunda.
Kampir dedi: – Yaxshisi,
To'r qo'yamiz shu kunda.
To'rga qayri qo'l yigit,
Ilinib qoldi bir zumda.
Kampir ushlab: o'g'ri it,
Nega olding shu kunda?
O'g'ri boshini egib,*

Uzir (uzr demoqchi) so'rar tinmasdan...

She'r shu tarzda uzundan-uzoq davom etadi.

Maktublarni saralaganda

Bizningcha, xoh u hazil she'r bo'lsin, xoh ertak, haqiqatga biroz bo'lsa-da, yaqinroq, ishonarliroq bo'lishi kerak.


Feruzaxonning o'zi ishonarmikin kampirning mahsisini to'rga ilingan (insonlarga to'rdan tuzoq qo'yilmaydiku) qayri (egri demoqchi bo'lsa kerak) qo'l yigit bir zumda o'g'rilab qo'yishiga?! Muallifimiz, afsuski, nechanchi sinfda o'qishlarini yozmabdilar. Quyiroq sinflarda o'qisalar, ayrim so'zlarning ma'nosini tushunib-tushunmay ishlatganlarini bolalikka yo'yib qo'ya qolardik-da...

«...Men she'rlarimga ishonaman, bu she'rlar o'zgacha did, o'zgacha mahorat bilan yozilgan. Har qanday yovuz inson qalbida ham jo'shqin mehrni uyg'otadi. Mening orzularim qanotini sindirdingiz, yuragimni parchaladingiz», deb yozibdi Buxoro viloyati, Kogon tumanidagi 4-umumta'lim maktab o'quvchisi Mohichehra Po'latova. Uning maktubi noma'lum sabablarga ko'ra bizgacha yetib kelmagandir yoki maktublar orasida nazarimizdan chetda qolgandir. Buning uchun qizimizdan uzr so'raymiz va qaytadan yozib yuborgan she'riga nazar tashlaymiz:

(Davomi 6-betda.)

Shoyim BO'TAYEV

USTA VA CHARXPALAK



(Ertak-qissa)

Siz o'qishni boshlagan mana shu ertak-qissa to'qilmasdan burun Usta ishini tugatib, asbob-uskunalarini yig'ishtirib xaltasiga solgan, narvonni yasab bo'lgan edi. Odamlar bu narvonni bekam-u ko'st yaratilgan, deb hisoblashardi. Ammo o'z ijodining mahsulidan Ustaning ko'ngli negadir to'lmagandi. Bu qandaydir boshqacha, mukammalroq narsa yaratishni orzulardi.

Aslida, narvonni yaratayotganda ham shu xayolda edi...

NARVON

Usta narvonga qalb qo'rini berdi.

Uni roppa-rosa olti metr qilib yaratdi.

O'sha kuni Usta o'zi yashayotgan tog' yon bag'ridagi qishloqchanning namxush ko'chasidan narvonni yelkasida ko'tarib o'tdi.

Qishloq chetida, ulkan qoyatoshning ostida muqaddas chashma bor edi. Necha yuz yillardan buyon qishloq ahli, o'tgan-ketganlar bu chashmadan suv ichib, chanqovlarini qondirib kelayotganliklari va ekin-tekinlar ham shu suv bilan sug'orib ko'kartirilishi, ulardan yaxshigina hosil olinishi sababli chashma muqaddas hisoblanar edi.

Odamlarga foydasi tegsa, har bir narsa muqaddaslashib, e'zozlanishi azaldan ma'lum. Xullas, qishloq'imizning ko'rki bo'lib ko'rinib tursin, deb odamlarga chashmaning ustiga naqshinkor ustunlar bilan ayvon ko'tarishgan, uning tomini oq tunuka bilan yopishgan edi. Bu chashmaga ham, uning ustidagi ayvonga ham, ayvon tomiga yopilgan oq tunukaga ham boshqalarning havasi kelib, og'izlari ochilganча tomoshalab qolishardi. Nimadir bo'ldi-yu, tunukalardan birining bir tomoni ko'tarilib, qiyshayib qoldi. Tomga zarari tegmasa ham, ko'ziga xunuk ko'rinar edi. Shuni tuzatib qo'ysangiz-chi, deb odamlar uni Ustaga ko'rsatishardi. Narvon bo'lmagani uchun Usta bu

ishni paysalga solib kelardi. Narvonni yasab bo'lgan kuniyoq uni ko'tarib, o'sha yoqqa yo'l olgandi.

Usta ko'tarib ketayotganda narvonning uch metri orqada qolgan bo'lsa, uch metri oldinga chiqib turgandi. Ustaning o'zi o'rtada borayotgani uchun uzoqdan qaragan odamga o'zidan bir necha baravar kattalikdagi xasni ko'tarib ketayotgan chumoliga o'xshab ko'rinar edi.

Hali aytganimizdek, uzunligi olti metr, eni yarim metr 12 poyasi bo'lgan bu narvon qoratolning quritilgan shoxidan yasalgani uchun vahimali ko'ringani bilan pardek yengil edi. Bundan bexabar odamlar Ustaning kuchiga qoyil qolishib:

– O'zi jikkakkina bo'lgani bilan Ustaga kuchdan Xudo bergan-da, – deya bosh chayqab qo'yishdi.

Shu gap aytilgan mahalda Usta bir qalqib ketdi. Ko'z yomon-da!

Usta yelkasida ko'tarib ketayotgan narvonni yasayotgan mahalda uning har bir poyasiga o'zicha nom qo'yib chiqqandi. Nega bunaqa qilganining sababini uning o'zidan so'rashsa ham tuzuk-tuzuk tushuntirib berolmasdi.

Shunaqa qilib desangiz, narvonning pastki poyasi biroz kengroq joyni egallagani, baquvvatroq hamda uzunroq bo'lgani bois, kattasi shu deb Usta unga Hasan deb nom bergan edi. Hasanni erkalab, to'ng'ichvoy deb ham atadik. Ustaning shunaqa qiziq-qiziq fe'l-atvori bor edi-da. Tepaga chiqqani sayin poyalar oz-ozdan, bilinar-bilinmas qisqarib boraverar edi.

(Davomi 4-betda.)

«BAXTLI BOLALIK»NING BAXTIYOR ONLARI



yuritayapti, – deydi oromgoh tarbiyachisi shu maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Dilfuza Eshmatova. – Jumladan, stol tennis, shaxmat, shashka kabi sport turlaridan musobaqalar hamda «Quvnoq startlar»,

«Kim epchil-u kim chaqqon» nomli o'yinlari o'tkazilyapti. Besh guruhga bo'lingan bolajonlarga hamkasblarimiz Sabiha Olimova, Noila Ungarova, Muqaddas Ro'ziyeva, Muhabbat Isayeva, Quralay Muldasheva kabi pedagog-tarbiyachilar qalb qo'ri bilan tarbiya bermoqdalar. – Bolalikning sururli damlarini oromgoh qo'ynida o'tkazishga nima yetsin. Bizga bunday imkoniyatlarni yaratib bergan

Sergeli tumanidagi 322-o'rta umumta'lim maktabida kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun uch bosqichli oromgoh tashkil etilganidan xabaringiz bor.

– 125 nafar bolajonlarni o'z bag'riga olgan oromgohimizda bolajonlarni dam olishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan. Unda turli xil sport seksiyalari, qiziqarli to'garaklar reja asosida faoliyat

Yunusobod tumanidagi Suvsoz Davlat Unitar korxonasi qarashli «Zilola» bolalarni sog'lomlashtirish oromgohidagi bolalarning beg'ubor qiyqirig'ini eshitib, ularga havasimiz keldi. Bolalikning gullagan damlari... quvonchining cheksizligini yuz-u ko'zlari aytib turardi. Biz ularni tongni chuqurlashib qarshi olayotgan qushlarga qiyoslagimiz keldi. Oromgoh rahbari Zulfiya

opa Ergashevaning ta'kidlashicha, har mavsumda oromgohda 750 nafar 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qiz dam olar ekan. 8 nafar tarbiyachi va 8 nafar yetakchi, jismoniy tarbiya va suzishni o'rgatuvchi ustozlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, bolajonlarning zerikmasliklari uchun har xil to'garaklar tashkil etilgan. «Mohir qo'llar», raqs, rasm chizish, futbol, shashka, shaxmat, tennis to'garaklari shular jumlasidandir, bolalar sog'lig'ini yaxshilash uchun iqtidorli yoshlarni topish maqsadida

rahbar-u tarbiyachi opalarimizdan xursandmiz, – deydi 3-sinf o'quvchisi Nuriddin Abdusamatov.

– Menga esa oromgohimizda faoliyat olib borayotgan musiqa, tasviriy san'at to'garaklari juda yoqadi, – deydi biyron tillari bilan jajji tarbiyalanuvchilardan yana biri 2-sinf o'quvchisi Madina Mirahmedova. – Ayniqsa, bichish-tikish, munchiq (biser) tikish to'garaklari men kabi barcha bolalarda katta qiziqish uyg'otaypti.

– Ikki farzandim ushbu oromgohda hordiq chiqarayapti, – deydi Sergeli tumanining 5-mavzesida yashovchi Guliston Qo'ziyeva. – Biz ota-onalar oromgoh ma'muriyati va shirinso'z tarbiyachilardan mamnunmiz.

Bir so'z bilan aytganda, bu haqiqiy dam olish maskaniga aylanganligidan bolalar juda ham xursand.

Zumrad BAHRIKOVA,
oromgoh rahbari

Quvnoq yozim o'tar soz!

spartakiadalar, «Hindular qabilasi», «Neptun» kuni kabi tadbirlar uyushtirilib turiladi. «Kamolot» YOIH va «Vatanparvar» tashkiloti, «Yosh ijodkor»lar teatri, «Taron a yulduzi» tashkiloti a'zolari bilan uchrashuvlar uyushtirilib boriladi.

Oromgohdagi iqtidorli yoshlar qatoriga 13 yoshli raqqosa va sahnalashtiruvchi qiz Fazilatxon Xudoyberganovani hamda 13 yoshli raqqos Yusuf to'ra Qo'chqorovlarni ham kiritishimiz mumkin. 12 yoshli Aziza Ollayorovanning tabiatga bag'ishlangan rasmlardan hayratlandik. Oromgohda dam olayotgan bolalar bilan xayrlashar ekanmiz, ularning baxtli bolaliklariga havasimiz keldi.

Ahtamqul KARIM,
Muhammadislom ZOHIDOV

QUVNOQ BOLALAR

OROMGOHNI SOG'INAMAN


Oromgohlarda dam olayotgan bolalarga mazza-da! Har bir kunlari o'zgacha maroqli o'tadi.

Bolaligimda men ham oromgohda dam olishni yaxshi ko'rardim. Ba'zi bolalarga o'xshab «uyga ketaman», deb xarxasha ham qilmasdim. Chunki oromgohdagi tartib-intizom menga yoqardi. «Yo'g'-ey, shunisi zerikarli-da», deysizmi?! Adashasiz, oromgohdagi tartibning o'quvchilar kun tartibiga moslashtirilganligi sizning foydangiz.

Yodimda, bir yili oromgohga borganimda, hech uyga ketgim kelmagan. Axir do'stlarim ko'p, har kuni kutubxonaga kirib olib, istagan kitobimni o'qiyman. Yana oromgohimizda ozodalikni saqlagan, yerga tashlangan qog'ozlarni yig'ib, hovli va o'yingohlarni supurganlar uchun «tozalik tangalari» tarqatildilar, men esa ularni rosa yig'ardim. Besh kunda bir marta ana shu tangalarga turli shirinliklar, mevalar sotildilar. Masalan, bir tangaga ikkita olma, ikki tangaga bitta shokolad sotib olsa bo'lardi... Men sevimli joyim – kutubxonaning polini, changlarini artardim va kutubxonachi opamiz har kuni bir tangadan berardi. Endi o'ylasam, oromgoh menga dam olish bilan birga mehnatsevarlikni ham o'rgatgan ekan. Ertalablari erinchoqlik qilib, badantarbiyaga arang uyg'onar edik. Uyquchi qizlar kiyim turadigan shkafning ichiga berkinib olib, hamma chiqib ketgach, qayta yotib uxlashardi. Men esa kattalarning nasihatlarini eslab, uni hecham kanda qilmasdim.

Bugun oromgohlarda dam olayotgan bolajonlar ham ta'tilni mazmunli o'tkazayotgan bo'lsalar, ajabmas! Ta'tilni uyida o'tkazayotgan bolalarga ham maslahatim bor: avvalambor, har bir kuningizni rejalab oling. Kun tartibingizdan kitob o'qish, sport bilan shug'ullanishga vaqt ajratishni unutmang! Biror hunar o'rganish uchun to'garaklarga qatnasangiz, yana yaxshi.

Sayyora JO'RAYEVA,
Yulduz AZIZOVA



(Davomi. Boshi 3-betda.)

Hasandan keyingi poyaga ikkinchi Hasan deb, undan keyingisiga uchinski Hasan deb, keyingilariga ham to'rtinchi Hasan, beshinchi Hasan deb navbati bilan Usta nom berib chiqdi. Shundan so'ng, u tomoq qirib:

– Sizlar kattasizlar, mustahkam turmasalaringiz, ukalaringiz sinib ketadi-ya, – deb qo'ydi.


Usta bu gapni o'zicha aytgan bo'lsayam, Hasanlar uning ma'nosiga tushunishib, eslarida olib qolishdi. Eng kichik poya narvonning narigi uchida – tepada turar edi. Usta unga Husan deb nom berdi. Pastga tushgani sayin poyalar oz-ozdan, bilinar-bilinmas uzayib boraverar edi. Husandan pastdagi poyani ikkinchi Husan, undan ham pastdavisini uchinchi Husan, yanayam pastdagilarini to'rtinchi Husan, beshinchi Husan deb Usta navbati bilan nomlab chiqdi. Ularning orasida eng nimjoni, injiq, erkatoyi – Husanning o'zi edi. Usta uni erkalab kenjatoy deb ham atardi. Aytmoqchi, Hasan va Husanlar o'rtasidagi yana ikkita poyani Usta o'rtancha Hasan-Husan deb atagan edi. O'rtancha Hasan-Husanlar bir-birlariga juda-juda o'xshashardi.

Ularni bir-biridan ba'zan Ustaning o'zi ham ajratolmay qoldilar. Shunda Hasanlar tomondagisining Hasanligini, Husanlar tomondagisining Husanligini ekanligini bilib olardi.

O'sha kuni Usta muqaddas chashma ustidagi ayvonning tomiga narvonni qo'yib chiqdi va qiyshayib qolgan oq tunukani tuzatib qo'ydi. Narvonning tepadagi poyasi Husan ham tomida edi. U bu ishni xuddi o'zi bajargandek kerilib, dimog'i havolandi.

Shunaqa bo'ldi.

AYIQ ODAM



Ustaning bir qo'shnisi bor edi. U shunaqayam yalqov ediki, o'yning aksini suvda ko'rsa, bosh ko'tarib osmonga qarashga eringani uchun taniyolmay, bu qanaqa suv jonivori bo'ldiykin, deb o'ylanib qoldi.

Yana unga biror-bir yumushni bajarish zarurligini yoz payti yuklashsa yoki aytishsa, e, deb qo'yar va qishning o'rtasida boshini ko'tarib, a-a, deganicha haligi gapni esga olar edi.

Uni Ayiq odam deyishardi. Negaki, uni ayiq desa odamga o'xshar, odam desa ayiqqa o'xshardi, juda g'alati, farqlab olish qiyin edi.

Erta ko'klamda shu qo'shnisining kulbasi tomidan chakka o'ta boshlab, nima qilarini bilmay qoldi. Chakka tomayotgan joylarga tog'orachalar, kosa-piyolalar qo'yib

chiqdi. Axiyri ovqat ichishga ham idish-tovoq qolmadi. Ammo bunga Ayiq odam ko'p ham qayg'urmadi, negaki, bu paytga kelib, uning uyida ovqat degan narsaning urvog'ini topib bo'lmasdi.

«Hademay Osmon xolaning suvi tugab qolsa kerak, – deya o'ylay boshladi Ayiq odam. – Shunda yomg'ir tinadi. Picha sabr qilsam, hammasi o'tib ketadi».

Ammo Osmon xola suvni rosa g'amlagan edi. Sharillatib to'kavergani bilan adog'i ko'rinmadi.

Bu hol Ayiq odamga katta tashvish tug'dirdi. U o'yga toldi.

O'y-xayolida serquyosh kunlar, pishiqchilik bo'ldi. Xayolan shig'il mevali daraxtlarning shoxlarini bukib yotgan bog'larda, polizlarda kezdi. Ayiq odam, ayniqsa, tarvuzni yaxshi ko'rardi. U xayolida kattakon tarvuzni endi bo'lib yeyman, deb turganida, qoq miyasiga xanjar kelib urilganday bo'ldi. Endi o'ldim, deb o'ylagan Ayiq odam bir seskanib o'ziga keldi.

Bilib turganimizdek, uning miyasiga xanjar kelib tushmagandi. Shirin xayollar og'ushida ekanligida bir sovuq tomchi uy tomini teshib o'tib, Ayiq odamning boshiga tushgan, bu qiligi bilan:

– Ho-oy yalqov, ko'zingni ochsang-chi, xayoling qayerlarga og'ib ketdi, tomni tuzatishni o'ylamaysanmi? – degandek bo'lgan edi.

Buni Ayiq odam anglamadi. O'tiraverdi.

Shunda ikkinchi tomchi ham uning boshiga tushdi.

Bunisi endi gurzi bilan urgandek bo'ldi.

(Davomi bor.)

BARCHA HARAKATLARIMIZ FARZANDLARIMIZ UCHUN,

deydi Sirdaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Zaynab opa XUDOYOROVA.



– Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi va viloyat Kasaba uyushmasi hamkorligida «Bolalarni yozgi sog'lomlashtirish va dam oldirish mavsumini ko'ngilli o'tkazish»ga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqilgan.

Viloyatimizda 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar 91154 nafarni tashkil etadi. Ulardan 3360 nafari yozgi oromgohlarga, 48960 nafari maktablar qoshidagi sog'lomlashtirish maydonchalariga, 15250 nafari sayohatlarga, 2800 nafari sport maktablari to'garaklariga, 4000 nafari maktabdan tashqari ta'lim muassasalari to'garaklariga jalb qilingan. 14189 nafari ota-onalari bag'rida dam olayпти.

Shuningdek, bolajonlarni oromgohlarda qo'shimcha sog'lomlashtirish masalasini amalga oshirish uchun viloyatdagi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar qoshida qo'shimcha 13 ta kunduzgi oromgohlar tashkil etilgan.

7 ta shahardan tashqari tashkil etilgan oromgohlarda 13 ta kasb-hunar, akademik litseylari qoshidagi bolalar kunduzgi oromgohlarida 2000 dan ziyod bolalar sog'lomlashtirilmoqda.

Shuningdek, Boyovut tumani «Taraqqiyot» shirkati xo'jaligidagi 69 – maktab-internatda, «Shodlik» bolalar oromgohi bolajonlarni o'z bag'riga oldi. Bundan tashqari, Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi Duoba qishlog'ida «Sirdaryopaxta-sanoatsotish» uyushmasining «Guliston» bolalar oromgohi, Tog'terak qishlog'idagi «Sirdaryotrans» avtomobilda yuk va yo'lovchi tashish uyushmasining «Yubileyniy» bolalar oromgohida farzandlarimiz dam olmoqda.

Viloyatimizda 1 ta 27-«Mehribonlik uyi» bo'lib, unda 86 nafar bola tarbiyalanadi. «Mehribonlik uyi»ning o'zida oromgoh tashkil etilgan.

Bolajonlarimizning yozgi mavsumda maroqli dam olishlari uchun barcha ishlarni yaratishga harakat qilyapmiz. Sport mashg'ulotlariga e'tibor qaratganmiz, kutubxonalarni lotin alifbosidagi adabiyotlar, gazeta va jurnallar bilan boyitganmiz. Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi o'zining tasarrufidagi «Dori-darmon» va «Tibtexnika» hissadorlik jamiyatlari bilan birgalikda oromgohlarni yetarli darajada dori-darmon va bepul tibbiy xizmatni ta'minlagan, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati qattiq nazoratga olingan. Xullas, ayni paytdagi barcha harakatlarimiz farzandlarimiz uchun, ularning yozgi ta'tillari maroqli o'tishiga qaratilgan.

«NARGIZ»DA SIRK TOMOSHASI

– Bog'cha opa, sirkchilar nega kelmayпти?

– Men yo'lbarsni yaxshi ko'raman, u ham keladimi?

– Yo'lbarsdan qo'rqmaysanmi, men qo'rqaman...

Bog'cha hovlisiga kirganimizda, u yerda bolakaylar Toshkentdan kelayotgan ko'chma sirkni kutishayotgan ekan. Shu sababdan ham sabrlari chidamay bog'cha opalarini holi joniga qo'ymay savol ustiga savol berishayotgandi.

Bu bolajonlar Guliston shahar Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli «Nargiz» nomli 17-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari edi.

Muassasa zamonaviy usulda qurilgan bo'lib, unda

11 ta guruhda 240 nafar kichkintoylar ta'lim-tarbiya oladi. 2 ta guruh rus tiliga yo'naltirilgan. Ularga tajribali tarbiyachilar birlashtirilgan. Tarbiyachilarning intilishlari, mehnatkashligi va bolajonligi bois, jajjilar har bir mashg'ulotlarga qiziqish, intilish bilan qaraydilar. Ayniqsa, ertak qahramonlari, tabiat manzarasi, qo'shish, ayirish hamda boshqotirma kabi ko'rgazmalar kichkintoylar e'tiborini tortgan.

Shu boisdan ham ular turli musobaqalarda ishtirok etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkazilgan «Sog'lomjon–polvonjon» sport musobaqalarida muassasa tarbiyalanuvchilari 1-bosqich g'olibi bo'lishdi.

Muassasada to'garaklar mavjud bo'lib, ularda bolajonlar gavjum. Jumladan, «Aerobika», «Raqs», «Ertaklar yaxshilikka yetaklar», «Jajji pazanda». Deyarli har oyda ikki marotaba o'tkaziladigan ochiq mashg'ulotlarda to'garak a'zolari faol ishtirok etadilar.

Har chorak davomida tarbiyalanuvchilarning bilimlari monitor-

Muxbir safardan qaytdi



Soat kechki 20.00 bo'lishiga qaramay, suv havzasi katta-yu kichik bilan gavjum edi. Yaqindagina bolajonlar ixtiyoriga topshirilgan suzish suv havzasi Guliston shahrining 5-mavzesida qisqa fursatda bunyod etildi.

– Suv havzasining qurilishi farzandlarimiz uchun katta sovg'a bo'ldi, – deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan irrigator Abdullajon ota Odilov. – Eni 20, uzunligi 80, chuqurligi 2 metrdan iborat bo'lgan bolalar suzish havzasi salkam bir gektar maydonni o'z ichiga oladi. U yerda ayni paytda ko'rib turganingizdek, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilyapti. Nasib bo'lsa, bu joy shaharning eng ko'rkam bolalar dam oladigan maydoniga aylanadi. Mana shunday maydonni tashkil etishda albatta viloyat va Guliston shahar hokimining xizmati katta.

– Yoninamizda katta «Do'stlik» kanali oqib o'tadi. Biroq, bu yerda cho'milish xavfli, chuqur, – deydi 12 yoshli Madinabonu. – «Basseyn»da esa mazza.

– Suvi ham toza, qarang, bir tomondan kanalning oqava suvi kirib kelsa, ikkinchi tomondan ifloslangan suv chiqib ketayпти, – deydi farzandlarini suv havzasiga olib borgan Muhabbat opa.

Suv havzasining atrofida asosan ko'p qavatli binolar joylashgan. U yerdagi ota-onalar ham farzandlariga bo'lgan e'tibordan birdek xursand.

Viloyatda 305 ta umumta'lim maktablari, shulardan 8 ta ixtisoslashgan maktab-internat, 5 ta ixtisoslashtirilgan maktab, 192 ta maktabgacha ta'lim muassasalari va 38 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. 230 tasi zamonaviy, 75 tasi moslashtirilgan binolarda joylashgan.

ing qilib boriladi. Mazkur o'quv yili davomida bolalar bilimi 85 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichni yanada oshirish uchun tarbiyachilar hamisha izlanishda.

Kichkintoylar uchun barcha sharoitni yaratishga harakat qilayotgan mudira Dilorom Yusupova, uslubchi Dilbar Isaqulova hamda tarbiyachilarning xizmati katta.

Ha-ya, aytmoqchi, bolajonlarni zavqlantirish uchun ko'chma sirk aytilgan vaqtda yetib keldi. Bolakaylarning xursandligini ko'rsangiz edi...

*Feruza SOYIBJON qizi,
Marhabo NURMETOVA*

Viloyatda sport inshootlari qurilishiga katta ahamiyat berilmoqda. Guliston shahrida 1 ta TIP- IV Bolalar sport majmuasi, 1 ta Guliston shahar Markaziy o'yingohi, 1 ta «Boks saroyi» rekonstruksiyasi, Boyovut tumani 27-, Mirzaobod tumani 26-, Sayhunobod tumani 13-, Sardoba tumani 15-, Sirdaryo tumani 43-, Xovos tumani 16-maktablarga qo'shimcha 12x24, 9x18 o'lchamdagi sport zallari qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

SHE'R YOZAR

MITTI
YURAK...

(Davomi. Boshi 3-betda.)

Orzularim qanotida parvoz etyapman,
Orzularim gulchambarida burkanyapman.
Orzularim diorida sarlavhaman,
Umid uchqunida men yashayman.
Orzusiz turolmayman bir daqqa,
Ichimdan vulqondek so'z qaynab chiqar.
Sehrli qalamimni gar olsam qo'lga,
Sirli orzular ummonida suzaman birga.
Dengiz ummon kabi orzularim mo'l,
Yulduz kabi cheki yo'q orzularimning.
Sanab sanog'iga yetolmaysiz,
Bilmam: Orzuim qanotining qay birin ushlarman...

Mohichehraning she'riy mashqini qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha e'tiboringizga havola qilyapmiz. Undagi adabiyotga, she'riyatga bo'lgan havas, ishtiyoqni olqishlaymiz. Afsuski, mashqida amal qilinishi lozim bo'lgan she'riyat qonun-qoidalarning hech birini payqamadik. Shunday she'rlar bo'ladiki, ma'no-mazmunning ustunligi qofiya, vazn buzilishlari kabi ayrim kamchiliklarini «yuvib

ketadi». Mohichehraning she'rida esa mazmun sayozligi, qaytariq fikrlar ko'zga tashlanadi. Bu ijodkor qizimiz ham ko'proq she'riy kitoblari o'qishlari, yozganlarini adabiyot o'qituvchilariga ko'rsatib, ularning fikrlarini ham bilishlari, she'rning qayerida qanday tinish belgilari ishlatilishini o'rganib olishlari lozimdek, nazarimizda...

*Bog'larning malikasi,
Lolalarning erkasi,
Chamanzorning bekasi,
Bulbul bo'lgim keladi.
Samo uzra mo'tirab,
Oyning ahvolin so'rab,
Sumbul sochini tarab,
Zuhro bo'lgim keladi*

kabi misralar bilan boshlanuvchi she'rning muallifi Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 16-maktabning 8-sinf o'quvchisi Mohira Qodirovaning qalami umid uchqunlarini alangalatadi kishi qalbida.

Tahririyatimizga kelgan maktublar orasidagi semizgina xatjild e'tiborimizni tortdi. Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanidagi 23-o'rta maktabning 5-«G» sinf o'quvchilari o'z ijodlaridan namunalar yuborishibdi. Ular ham xuddi yuqorida keltirilgan she'rlardagi kamchiliklardan holi emas ekan. Ayrimlarini siz ham bir o'qib ko'ring-a:

ONA

*Men uchun aziz ona,
Yuzlari qizil lola.
Baxtli bo'lsin bu dunyoda,
Onajonim, mehribonim.
Ko'zlari qora emish,
Sochlari uzun emish.
Bo'ylari raso emish,
Bilimi a'lo emish.*

Munisa Mamanazarova qalamiga mansub ushbu mashqning sarlavhasi hamda birinchi misrasida ona so'zi

ishlatilmaganda, she'r farzandlarini kamolga yetkazaman, deya ko'zlaridan nur kamaygan, sochlariga oq oralagan nuroniy onalarimizga emas, go'zal qizlarimizga bag'ishlangandek taassurot qoldiradi kishida.

Yoki shu sinf o'quvchisi Munisa Jalilovaning «Chaqmoq» nomli she'rini olaylik:

*Chaqmoq chalsa odamlar,
berkinadi panaga.
Chaqmoq chalsa bolalar,
yuguradi uyiga.
Chaqmoq chalsa dalada
dehqonlar tashlar ishin.
Chaqmoq chalsa agarda
yaxshi bo'lar hammaga.*

Munisaning tabiat shaydosi ekanligidan quvondik. Biroq, chaqmoqning «chalishi» emas, chaqishini bilmasligidan, birorta ham tinish belgisi ishlatilmagan she'rda mantiq yo'qligini ta'kidlash o'rinli deb o'ylayman.

Samarqand viloyati, Paytuq tumanidagi 72-umumta'lim maktabi o'quvchisi Shahnoza Toshpo'latova, Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidan Sevara Toshmurodova, Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 32-maktabning 7-sinf o'quvchisi Barchinoy Umrzoqova, Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidan Sayyora Ermetova kabi yosh ijodkorlarimiz she'riy mashqlarida ham yuqoridagidek kamchiliklar ko'zga tashlanadi.

Asosli, o'rinli tanqid – kelajakning mevasi deyishadi. Uni samimiy qabul qilgan, to'g'ri xulosa chiqargan inson borki, yutqazmaydi. Bizning mulohazalarimiz esa tanqiddan mutlaqo yiroq, she'rlardagi ayrim kamchiliklaringizni ko'rsatib o'tdik, xolos. Ruhingizni tushirmay, yana-da ko'proq ijod qilasiz, kitoblari o'qib, uqib, qalamingizni charxlab boraverasiz, degan umiddamiz.

She'riy mashqlaringizni kutib qolamiz.

Feruza JALILOVA

Murod ABDULLAYEV

Ona o'tirgan joyidan ilkis ko'tarilarkan, o'zing madad ber! Ajdodlarim ruhi bizni qo'llangizlar. Yovuz Kir bilan tomchi qonimiz qolguncha kurashamiz! Yo hayot yo o'lim!


To'maris ona jilovdori tutgan arg'umog'ini shaxt ila minib, quyunday yelib ketdi.

Yarim tunda To'maris ona tush ko'rib uyg'onib ketdi. Osmonga boqdi: yulduzlar charaqlagan sutday oydin kecha. Yo tavba, ular bu qadar yaqin kelib qolgan. Har biri ulkan soyaga, go'yo o'tgan ajdodlari ruhiga aylanib qolganday nimadir demoqchiday. To'maris onaning butun vujudini titroq cho'lg'ab, o'zida qandaydir o'zgarish sezdi. Tag'in: ko'rgan tushini naq tepasiga osilib tushguday bo'lib turgan yulduzlar ham tasdiqlayotganday edi.

Shunda xayolidan bir o'y o'tdi: «Ajdodlarim ruhi qo'llayapti. Ajdodlarim ruhi yo'l ko'rsatyapti. Yo tavba, tushimda ko'rganim – baland tog'lar qurshagan manzil yulduzlarga boqqanim sayin ular orasidan ham ko'zimga chalinganday bo'ldi-ya! Yo Tangrim! Bu qanday sinoat bo'ldi? Ular aynan bir xildek. Qayer bo'ldiykin bu manzil? Yo tavba, men nimani ko'rayapman? Demak, qayer bo'lmasin, u manzil – Kir shu joyda yer tishlaydi».

To'maris onaning xayoli yana-da ravshan tortdi. O'z-o'zidan fikri bir to'xtamga keldi: erta tongda eng ishonchli navkarlaridan o'sha joyga yo'llaydi. Chopqir otlar bilan yo'lga tushilsa, ikki kunlik yo'l. Qaytish uchun ham shuncha vaqt ketadi. Ammo buni zinhor daryo ortidan kun ora xufiyalarini yo'llayotgan Kir bilmasligi shart...

(Esse)



To'maris ona juda tadbir bilan ish tutgan ekan: qaytib kelgan xufiyalaridan bildiki, elchilar Tuyamo'yin kechuvi to'qayzorlariga kirib ko'zdan g'oyib bo'lishibdi.

To'maris ona o'rnidan irg'ib turib, otining jilovini Qirquloch darasi sari burdi. Daryo bo'yiga esa eng ishonchli, sergak qo'riqchilarini, yov qo'shinining yurar yo'lidan ogoh etib turguvchi xufiyalarini qoldirdi. Siparangiz boshliq eng saralangan lashkar uning atrofini qo'riqlab borardi.

Aslida-ku, qadim-qadimdan mas-saget-u shaklar, ko'hna Xorazm qabilalari dushman bilan ochiq maydonlarda jang qilishni ma'qul ko'rishar va ko'pincha zafar ularga yor bo'lar edi. Chunki ularning otlari o'zg'ir, yov o'qlari dushmanning qo'li yetmaydigan joylardan yetib kelardi.

Bu daf'a darada urushishga to'g'ri keladi. Na chora? Tangrilar xohishi ham shu bo'ldi.

* * *

Qizilqum barxanlari, saksovluzorlar ortda qolib, Navtakaning tep-tekis dashtlari boshlangach, bir fursat otlarga hordiq berdilar. Endi yo'l yalang sayxonlik va qir-adirlar yonalab ketardi. Nonushta payti oldinda yurguvchi qorovul va xufiyalar orqadan kutilmagan xabar keltirdilar: Tuyamo'yin to'qayzorlariga kirib «ko'zdan g'oyib bo'lgan» elchilar naq ro'paradan chiqib kelishayotgan emish. Ular ortida yuz choqli sipohlar ham bor emish. Buni eshitib, To'maris onaning yuragi shuv etdi. «Bu pirsiyon o'lgurlar bizdan oldin Ko'hitang tomonlarga o'tib olishgan ekan-da! Demak, ular avvallari ham bu joylarga xufiyalarini yuborib turishgan. Ehtimol, biz borar manzillarni ham obdon bilishar?» Shunda Siparangiz o'z ilg'orlari bilan orqaga qaytib, ularni yanchib tashlashga

onasidan izn so'radi. Ona shoshmasdan ish tutishni maslahat berdi: «Mayli, biz hozir Balxoyoq yo'lidan Chakchak sari ketamiz. Sen yo'ldagi ko'hna qal'alardan birida to'xtab, dushmanni kuzat. Ular bizning orqamizdan tushadimi yo Kirning asosiy lashkariga qo'shiladimi, shuni bilib bizga xabar beringlar... – Ona o'g'liga rozilik berishga berdi-yu, biroq ichini bir shubha kemira boshladi. Siparangiz – o't-olov, dushmanga qo'rqmay tashlana oladi. Biroq, uning hali janglarda ko'zi pishmagan – yovning hiylalari-yu nayranglarini vaqtida fahmlamay qolishi mumkin. Buning ustiga kechagina uylangan bola... Biroq, uni shashtidan ham qaytarib bo'lmasdi. Qolgan jangchilar To'maris ona o'z o'g'lini ayadi, deb o'ylashi mumkin edi. Shu bois, yana Siparangizga yuzlanib dedi: – Kayxisravning asosiy lashkari bizning ortimizdan yurmoqchi bo'lsa, Chakchakkacha ularga indama. Daraga kirgach, biz manglayidan, sizlar esa orqasidan zarba berasizlar...»

– Uqdim, enajon!

* * *

Cho'llar, qir-adirlar oralab o'tgan yo'llardan yurib, baland tog' darasiga yetib kelgan ona To'maris dara boshidagi qo'nalg'ada nafas rostlab o'tirarkan, bu manzilda mustahkam joylashib olgan lashkarboshilari unga peshvoz chiqib kelishdi. Tog'ning muzday, salqin havosi har qancha tanni yayratmasin, onaning ko'ngli g'ash edi. Butun fikri-zikri Siparangizda: axir dushman tulkiday ayyor... Siparangiz bo'lsa, katta janglarni ko'rmagani ustiga sodda va tanti bahodir... Ona tun bo'yi mijja qoqmay ulardan mujda kutdi. Tong-la samoga boqib, Quyosh tangrisiga yolvordidi.

Ha, ona ko'ngli bekorga g'ash bo'lmagan ekan. Chopar noxush xabar keltirdi: Siparangiz dushman qo'ygan tuzoqqa tushibdi. Siparangiz dushmanning barcha lashkarini qiyratib bo'ldim, deb xayol qilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun «Kirga buyurmagan g'alaba nashidasi menga buyurgan ekan», deb yetti uxlab tushida ham ko'rmagan noz-ne'matlar to'la dasturxoniga ega chiqib...

Boshi o'tgan sonlarda.
Davomi bor.

YASHAR BOLA BO'LGIM KELADI



ISTAK

Urinib, surinib oltmishga keldim,
Olti yashar bola bo'lgim keladi.
Yetmish yoshga kirish Oллоhdan, bildim,
Yetti yashar bola bo'lgim keladi.

Uyog'iga ne bo'larin bilmadim,
Aslida-chi, bilib yetgim keladi.
Katta yoshni nazarimga ilmadim,
Bir yoshimda qolib ketgim keladi.

O'zim o'qib, o'zimdanda,
Ajab, qoyil qolaman.
Kecha yozgan so'zimdanda,
Bugun darolar olaman.

Demak, xulosa bitta,
Bugun ertaning naqshi.
Qancha yozmayin erta,
Bugun aytganim yaxshi.

tug'ilgan makoni. O'gat esa mening qishlog'im. Uning dunyoga mashhur bo'lishini orzu qilib, shu she'rni yozganman. Uni hatto Rasul Hamzatovga jo'natib yuborgan edik.

– *Shu damda ko'nglingizdan nimalar o'tyapti?*

– Alisher Navoiy, Lev Tolstoylar buyuk adib bo'lganlari bilan bolalarni unutishmagan. Bu ulug'vor ishga barcha taniqli adiblar hissa qo'shishlari kerak, deb hisoblayman.

– *Bolalar uchun o'zingiz nimalar yozyapsiz?*

– Fransuz tilidan tarjimalar qilyapman.

– *Bolalarga nimalarni ta'kidlamog'chisiz?*

– Hayot kurashdan iborat. Kurashib yashasinlar.

Xalqimizga munosib farzand bo'lsinlar.

Deyarli har kuni tahririyatimizga shoir, yozuvchilar, otanalar, bolalar, turli kasb egalari tashrif buyurishib, o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashadilar, kezi kelganda, bizga ko'mak berishga oshiqadilar.

Ayubxon Muhammadiy ham gavjum xonamizga jilmayib kirib keladilar. Ularning «Orzuli chog'lar», «Ezgulik», «Ulug' tuyg'u» kitoblari chop etilgan. Suhbatimiz she'rlar tahlilidan boshlandi.

– *«Istak» she'ringizda «Olti yashar bola bo'lgim keladi», debsiz. Oltmish yoshni qarshilayotgan ijodkorning bu xulosaga kelishiga sabab nima?*

– Bola bu yoshida dunyoni taniy boshlaydi. Bu eng pok tuyg'ular, ajib taassurotlar pallasi.

– *She'r oxirida bunga teskari ravishda «Bir yoshimda qolib ketgim keladi», debsiz.*

– Inson yoshligida shirin bo'ladi. Unga mehr ko'rsatgiz keladi. Qaniydi, odamlar Sizni hamisha o'shanday suyub ardoqlasa.

– *«Sada va O'gat» she'ringizning yozilishiga nima turtki bo'lgandi?*

– Sada – Rasul Hamzatovning

SHE'RIYAT DARAXTI

Daraxt yalang'och,
Bitta barg yolg'iz
Turadi titrab.

Odam ko'zi och,
Faqatgina yuz
Turadi aldab.
Nahot bargni ololmay,
Daraxt kesilsa.

Odamni bilolmay,
Odam ezilsa.

Piyer Emanuel

BU AJIB DUNYO

Yozning jazirama kunlarida jonga rohat bag'ishlovchi muzqaymoq yeyishni kim ham yoqtirmaydi deysiz. Lekin muzqaymoq tarixini o'qiganmisiz? Yo'q, deysizmi, marhamat, bilib oling:

Xitoyda muzqaymoq uch ming yil ilgari ham ma'lum ekan. Uni qor va mevalar sharbatidan tayyorlashgan.

Limon va apelsin sharbatidan tayyorlangan muzqaymoq sevimli iste'mol qilingan.

Yevropada esa muzqaymoq tayyorlash usulini XIII asrda o'rganishgan. Muzqaymoq tayyorlash usulini taniqli sayyoh Marko Polo Yevropaga olib kelgan ekan. Ana, shunaqa gaplar.

* * *

Jahonda ulug' kishilarga atalgan haykallar juda ko'p. Biroq, G'arbiy Germaniyaning Bedkez shahrida uy bekasi sharafiga dunyoda yagona haykal o'rnatilgan.

* * *

Ko'zi ojiz kishining toqqa chiqqani haqida bilishni istaysizmi? Amerikalik ko'zi ojiz Joan Felps 54 yoshida dong taratdi. U ikkala ko'zi ojiz bo'lsa-da, tog' cho'qqisiga ko'tarildi. Bir o'zi emas, 29 yoshli egizak o'g'illari bilan arqon yordamida Alyaska tog'ining olti ming metrlik cho'qqisini zabt etdi.

G'aroyib tuxum

Dunyoda turli xil parranda tuxumlari bor. Bu mavzuimiz oddiy tovuq tuxumi haqida.

Quddus shahri yaqinida yashovchi bir kishi tovuq'ining bu safargi tuxum qo'yishi odatiy jarayonlardan biri edi, albatta. Lekin

sohib ne ko'z bilan ko'rsinki, tovuq'i o'zi bilmagan holda dunyo rekordini o'rnatib qo'yibdi. Yangi tuxumning og'irligi 220 grammni tashkil etdi. Odatda tovuq tuxumi 50–70 gramm chiqadi. Rekordchi tovuqqa balli!

Salomatlik toshi

Bunday tosh haqida eshitganmisiz?

Xitoyning Lyaoning viloyatida ajoyib xususiyatga ega bo'lgan bir xarsang borligi ma'lum bo'ldi. Shu xarsang yaqinidagi qishloq aholisining o'rtacha umri 83 yosh bo'lib, biror marotaba ham og'ir kasallikka chalinmagan. Bu yerdagi hayvonlar o'rtasida ham biror marta yuqumli kasallik tarqalgan emas.

Mutaxassislarining tekshirishi shuni ko'rsatdiki, bu xarsang o'zida o'ttiz ikkita kimyoviy elementni – rux, mis, temir, kobalt, kremniy va hokazolarni jamlagan ekan. Xarsang bo'laklari tushgan suvdan ichish kishini zaharlanishdan saqlaydi, modda almashinuvini yaxshilaydi, jigar faoliyatini oshiradi. «Salomatlik toshi» o'simliklarga ham yaxshi ta'sir ko'rsatar ekan.

Ildamlarning ildami

Jahonda tez gapiradigan, tez ovqatlanadigan, tez yuguradigan kishilar ko'p. Norvegiyalik Ernst Mensen esa juda tez yuradigan odam. U atigi 14 kun ichida Parijdan Moskvagacha piyoda kelgan. Istanbuldan Kalkuttaga va Kalkuttadan Istanbulga qilgan sayohatiga esa 59 kun sarflagan. Bu masofa 8856 km.ni tashkil etgan. Ernst buncha masofani faqat piyoda bosib o'tgan.

O'n bir yoshli bilag'on

«Til bilan el taniydi», degan gap bor. Buyuk britaniyalik jurnalist Garold Uilyams saksonta tilni bilgan. O'ziga xos rekordchi bo'lgan bu odam o'n bir yoshidayoq yunon, lotin, fransuz va nemis tillarini suvday «ichib» yuborgandi.

Shunday ekan, aziz tengdoshlar, bo'sh vaqtingizni behuda sarflamay til o'rganing, dunyo kezing.



Har bir eshittirish oldidan ana shunday puxta tayyorgarlik ko'riladi.

Suratda: «O'zbekiston» radiokanalining «Kelajak tongi» studiyasida



Giloslarni yuvmasdan yeb, danagini hovliga otib o'tirgan mana bu qizni taniyapsizmi? Qimmatxon, deysizmi, ha, barakalla!

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 160-maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi Muhammadjon ABDULLAYEV Qimmatxonni biroz zamonaviylashtirib chizibdi.

Misrdagi daryo nomi	Osmon jismidan biri	Oyoq kiyim	Podshohning qizi	Botanika fani nimani o'rgatadi	Unli tovuqlardan biri
			Nota nomi		Ayiqning yeguligi
Ot turidan biri					
			Eng yaxshi baho		
Yo'l					Yura...
Nota	To'ybop taom nomi	 Sol		

Diyora MAHRAMQULOVA, Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi 5-maktab o'quvchisi

SPORT - TEST

Bolalar, bilasizmi, xotirani tiklab turish ham bilimingizni oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham biz sizlarning ta'tildagi bo'sh vaqtingizni yana-da mazmunliroq o'tkazish uchun 2006-yilning noyabr oyida Qatar davlati Dohada o'tgan XV Osiyo o'yinlarida mamlakatimiz sportchilari erishgan yutuqlarni esga oldik. Qani, toping-chi, mamlakatimiz sportchilari bilan qanday faxrlanar ekansiz.

5. Dohadagi Osiyo o'yinlarida qaysi sportchimiz bir oltin va bir kumush medalni delegatsiyamiz hisobiga qo'shildi?

- a) Elshod Rasulov;
b) Abdulla Tangriyev;
d) Go'zal Xubbiyeva;
e) Anastasiya Juravleva.

6. Dohadagi Osiyo o'yinlarida O'zbekiston davlati umumiy yakunda nechanchi o'rindan joy oldi?

- a) birinchi;
b) yettinchi;
d) uchinchi;
e) to'rtinchi.

7. Qatardagi Osiyo o'yinlarida qaysi davlat umumiy yakunda birinchi o'rindan joy oldi?

- a) Yaponiya;
b) Eron;
d) Xitoy;
e) Qozog'iston.

8. Dohadagi Osiyo o'yinlarida qaysi terma jamoamiz ishtirok etmadi?

- a) O'zbekiston tennis jamoasi;
b) O'zbekiston voleybol terma jamoasi;
d) O'zbekiston bouling terma jamoasi;
e) O'zbekiston og'ir atletika terma jamoasi.

9. Dohadagi Osiyo o'yinlarida qaysi terma jamoamiz qit'a davlatlari orasida 1-o'rinni egalladi?

- a) O'zbekiston dzyudo terma jamoasi;
b) O'zbekiston baydarka va kanoeda eshkak eshish terma jamoasi;
d) O'zbekiston shaxmat terma jamoasi.

10. Navbatdagi Osiyo o'yinlari qachon va qayerda o'tadi?

- a) 2008-yil Pekinda;
b) 2009-yil Chang Chung

shahrida;
d) 2010-yil Guanchjou shahrida;
e) 2011-yil Seulda.

11. Qatardagi Osiyo o'yinlarining ramzi sifatida qaysi hayvon qabul qilindi?

- a) xo'rozcha;
b) uloqcha;
d) qo'zichoq;
e) maymuncha.

12. Qatardagi Osiyo o'yinlarida qatnashgan 12 yoshli Maftunabonu To'xtasinova qaysi sport turida ishtirok etdi?

- a) suzish;
b) badiiy gimnastika;
d) yengil atletika;
e) sinxron suzish.

Mahmuda YIGITALIYEVA, Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 9-o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi

1. 2006-yil Dohada tartib bo'yicha nechanchi Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi?

- a) o'n to'rtinchi;
b) o'n uchinchi;
d) o'n beshinchi;
e) o'n ikkinchi.

2. Futbol bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi Qatar poytaxti Dohadagi Osiyo o'yinlarida qaysi jamoalar bilan bir guruhdan joy olgan edi?

- a) Quvayt, Eron, Iordaniya;
b) Qatar, Iordaniya, Malayziya;

d) Bangladesh, BAA, Qatar;
e) BAA, Qatar, Iordaniya.

3. Qatardagi Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoalari nechta oltin medalni qo'lga kiritdi?

- a) 10 ta;
b) 13 ta;
d) 14 ta;
e) 11 ta.

4. Dohadagi Osiyo o'yinlarida futbol bo'yicha qaysi terma jamoa g'olib chiqdi?

- a) Iroq;
b) Eron;
d) Qatar;
e) BAA.

Tong YULDUZI

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV

Navbatchi:
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV, Dilbar ALIMJONOVA, Qahramon QURANBOYEV, Jabbor RAZZOQOV («O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari), Dilmurod RAHMATILAYEV, Dilshoda DADAJONOVA, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Sobirjon SHARIPOV, Ergashvoy SARIQOV.

Manzilibiz:
700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@mail.ru Tel: 144-27-25 144-63-08 Tel./ faks: (99871) 144-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

Noshir:
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. Adadi - 20641 Buyurtma N: J 3894